

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA’LIM
OLISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (OLY TA’LIM MISOLIDA)**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Bokiyev Jahongir Nurmatjon o‘g‘li

О‘zbekistonda raqamlashtirish sharoitida ta’lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (oliy ta’lim misolida).....3

Bokiev Jakhongir Nurmatjon ugli

Improving the organizational and legal framework of education in Uzbekistan in the context of digitalization (on the example of higher education).....23

Бокиев Жахонгир Нурматжон угли

Совершенствование организационно-правовой основы право на образования в Узбекистане в условиях цифровизации (на примере высшего образования).....43

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....47

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA’LIM
OLISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (OLY TA’LIM MISOLIDA)**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu720-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Davran Kuvanovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Husanov Ozod Tillaboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 22-iyun soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1269-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 7-iyunda tarqatildi.

(2024-yil 7-iyundagi 11-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R. Xakimov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B. Maxmudov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

I.R. Bekov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor.

KIRISH (Falsafa doktori (Phd) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda raqamlashtirish tendensiyalari barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham jadal rivojlanib bormoqda. Xususan, butun dunyoda kuzatilgan koronavirus pandemiyasi muayyan muddat mobaynida an'anaviy ta'limdan onlayn ta'limga o'tishga va natijada onlayn ta'limning yangi trendga aylanishiga sabab bo'ldi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 220 milliondan ortiq talabalar koronavirus pandemiyasi paytida akademik uzilishlarga duch kelishgan va natijada ushbu davrda raqamli platformalar orqali masofadan o'qitish juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. "Forbes" nashrining ma'lumotlariga ko'ra, birgina AQSHning o'zida bakalavriat dasturlarida tahsil oluvchilarning 14,6 foizi hamda magistratura bosqichida tahsil oluvchilarning 17,2 foizi to'liq yoki deyarli to'liq onlayn ta'lim olishadi.

Jahonda raqamli ta'lim olish huquqi, raqamlashtirish jarayonlarining ta'lim olish huquqiga ta'siri, raqamlashtirish sharoitida ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida qonunchilik bazasini yaratish masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, raqamli ta'limni yo'lga qo'yishda uzluksiz aloqa va boshqa shu kabi zarur shart-sharoitlarning yaratilishi, ushbu jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar va ularning ta'lim olish huquqiga ta'siri, raqamli ta'lim jarayonlarida talabalarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash kabi masalalarga ham ilmiy, ham amaliy xarakterdagi tadqiqot sifatida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Yangi O'zbekistonda ham ta'lim sohasini, xususan, oliy ta'limni raqamlashtirish bo'yicha muayyan islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2021-yil 16-iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektorda oliy ta'lim muassasalarida "o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishni to'liq raqamlashtirish zarurligi" alohida ta'kidlangan edi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), "Ta'lim to'g'risida"gi (2020) hamda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi (2016) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2019), "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019), "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020) farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2019), "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022), "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022) qarorlari, Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022) qarori hamda sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalishi” doirasida tayyorlangan bo‘lib, dissertatsiya 12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim olish huquqi va u bilan bog‘liq masalalar milliy huquqshunos olimlarimizdan Sh. Asadov, B. Qodirov, B. Ismoilov, I. Djurayev, M. Tursunova, E. Qodirov, D. Anvarova, F. Madiyev, Sh. Yakubov, S. Gulyamov, V. Topildiyev, Q. Abdurasulova, J. Maksumov hamda D.A. Turaxanovlar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan. Shuningdek, ta’lim olishning inson va fuqaro huquqi sifatidagi nazariy-huquqiy masalalari O. Husanov, M. Rustamboyev, D. Axmedov, I. Tulteyev, B. Saidov hamda X. Mamatov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Shu bilan birga, oliy ta’limda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim olish imkoniyatlarini (huquqini) ta’minlash bilan bog‘liq masalalarning iqtisodiy va pedagogik jihatlari Z. Baxranova, A. Xamidova, G‘. Xakimov, R. Shamuratov hamda D. Mamatov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Shuningdek, MDH tarkibiga kiruvchi davlatlar huquqshunos olimlari, jumladan, S.A. Mishenko, K.N. Guseynova, V. Shkatulla, K.A. Brizkun, C.B. Demanova, S.L. Seregina hamda Y.D. Voloxovalar ta’lim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqni ta’minlash muammolarini tadqiq etishgan.

G‘arb davlatlari olimlaridan D. Black, T. Amin, M. Shaw, C. Martin, H. Brighthouse, K. Mullane, K. Facer, N. Selwyn hamda D. Wagner kabi soha mutaxassisleri ta’lim olish huquqini ta’minlashning zamonaviy huquqiy muammolari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishgan¹.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib “Rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyoti va xorijiy davlatlarning ijobiy yutuqlarini nazariy tadqiq etish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish” bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida raqamlashtirish sharoitida shaxsning oliy ta’lim olish huquqini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ta’lim olish huquqi tushunchasining mazmun-mohiyati va yuridik tabiatini tahlil qilish;
- raqamli texnologiyalar va raqamli ta’lim olish shakllarini nazariy tahlil qilish;
- raqamli ta’lim olish huquqining vujudga kelishi va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;

¹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari bilan dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida tanishish mumkin.

- raqamlashtirish sharoitida oliy ta’lim olish huquqini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish;
- raqamlashtirish sharoitida oliy ta’lim olish huquqiga doir qonunchilik tahlilini amalga oshirish;
- masofaviy oliy ta’lim olish huquqini ta’minlashning huquqiy asoslarini tadqiq etish;
- inklyuziv raqamli ta’lim olish huquqini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy masalalarini o‘rganish;
- raqamlashtirish sharoitida oliy ta’lim olish huquqini ta’minlash istiqbollarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;
- ta’lim olish huquqiga doir xalqaro huquqiy standartlarni joriy etish orqali raqamli oliy ta’lim olish huquqini ta’minlash masalalarini o‘rganish;
- ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim olish huquqini ta’minlashga doir ijobiy tajribalarni joriy etish istiqbollarini tadqiq etish;
- sun’iy intellektni ta’lim olish jarayoniga tatbiq etishning huquqiy jihatlarini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti O‘zbekistonda raqamlashtirish sharoitida oliy ta’lim olish huquqini ta’minlash bilan bog‘liq konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini raqamlashtirish sharoitida shaxsning oliy ta’lim olish huquqini ta’minlashga doir nazariy-huquqiy qarashlar, sohaga oid qonunchilik hujjatlari, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fandagi mavjud konseptual yondashuv, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga oid masalalar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, so‘rovnoma, induksiya, deduksiya va statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullar qo‘llangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning sifatli ta’lim olishi bo‘yicha teng imkoniyatlarni kafolatlash maqsadida ta’lim tashkilotlarida alohida ushbu shaxslar uchun davlat tomonidan inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi lozimligiga oid norma konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi lozimligi asoslantirilgan;
- har bir insonning sifatli oliy ma’lumot olish huquqini samarali amalga oshirish maqsadida davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi konstitutsiyaviy kafolatlanishi zarur ekanligi asoslangan;
- shaxsning erkin rivojlanishini ta’minlash maqsadida masofaviy ta’lim talabalarga mamlakatning har qaysi hududida va uning tashqarisida ta’lim olishning teng imkoniyatlarini yaratib berishi zarurligi ilmiy asoslantirilgan;
- masofaviy ta’lim bo‘yicha o‘qish davomiyligi tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kunduzgi ta’lim shakli uchun belgilangan o‘qish davomiyligi muddatidan kam bo‘lishi mumkin emasligi asoslantirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

– “ta’lim olish huquqi”, “oliy ta’lim olish huquqi”, “masofaviy ta’lim olish huquqi”, “inklyuziv ta’lim” kabi tushunchalarga nisbatan mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi;

– amaldagi qonunchilikka ta’lim olish, shu jumladan, oliy ta’lim olish huquqini amalga oshirishni ta’minlash yo’llari sifatida ta’lim tashkilotlarida alohida ta’limga ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiyani tashkil etish, oliy ta’lim tashkilotlarida qonunga muvofiq akademik erkinlik, o’zini o’zi boshqarish, tadqiqotlar o’tkazish va o’qitish erkinligini berish kabilarni kiritish maqsadga muvofiqligi asoslantirildi;

– inklyuziv ta’limni ta’lim olish shakllaridan biri sifatida emas, balki ta’limning ajralmas xususiyati va asosiy tamoyili ekanligi asoslantirildi va shunga asosan amaldagi qonunchilikda inklyuzivlikni ta’lim olish prinsipi sifatida kiritish lozimligi asoslantirildi;

– davlat ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni tashkil etishga oid munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan alohida normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish lozimligi asoslantirildi va unda nazarda tutilishi kerak bo’lgan bir nechta masalalar yuzasidan takliflar ishlab chiqildi;

– masofaviy ta’lim olish huquqidan foydalanishda ta’lim oluvchi (talabalar)ni boshqarishi, ularga o’quv faoliyatida ko‘mak berish maqsadida alohida maqomdagi mutaxassislar (masofaviy ta’lim moderatori, fasilitator va tyutorlar) mavjud bo’lishi lozimligi hamda ularning huquqiy maqomi, vazifa va funksiyalarini qonunchilikda belgilash zarurligi asoslantirildi;

– mahkumlarga masofaviy oliy ta’lim berish tartibini qonunchilik darajasida belgilash lozimligi asoslantirildi hamda mazkur sohada ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatda belgilanishi lozim bo’lgan normalar bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ishda qo‘llangan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqotdagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan raqamlashtirish sharoitida oliy ta’lim olish huquqining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, mazkur masalaga oid qonun hujjatlari hamda ularning tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda Konstitutsiyaviy huquq, Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq, Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari fanlarini o’qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo’ladi. Tadqiqot natijalaridan ushbu yo‘nalishdagi metodologik-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishda, kelgusida bu borada fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamlashtirish sharoitida shaxsning ta’lim olish, shu jumladan, oliy ta’lim olish huquqini ta’minlashni takomillashtirish sohasidagi tadqiqot bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

– ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalar uchun davlat tomonidan inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi lozimligiga oid taklif 2023-yil 1-

maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–837-son Konstitutsiyaviy qonun bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi oltinchi qismini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 1-dekabrda 02/6-09-29-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxslar uchun davlat tomonidan ta‘lim tashkilotlarida inklyuzivlik asosidagi ta‘limning yo‘lga qo‘yilishiga xizmat qiladi;

– shaxsning oliy ta‘limga bo‘lgan huquqini ta‘minlashda davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlashi zarurligiga oid taklif 2023-yil 1-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–837-son Konstitutsiyaviy qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda e‘tiborga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 1-dekabrda 02/6-09-29-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi davlat tomonidan ta‘limning barcha turlari, xususan, oliy ta‘lim rivojiga ham alohida e‘tibor qaratilishiga, natijada shaxsning oliy ta‘lim olish huquqi ta‘minlanishiga xizmat qiladi;

– masofaviy ta‘lim talabalarga mamlakatning har qaysi hududida va uning tashqarisida ta‘lim olishning teng imkoniyatlarini taqdim etishiga oid taklif Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrda 559-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 7-bandi beshinchi xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2024-yil 14-martda 09-09-11-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi ta‘lim oluvchilarga masofaviy tarzda ham mamlakatda, ham undan tashqarida ta‘lim olish imkoniyatini taqdim etishga xizmat qilgan;

– masofaviy ta‘lim bo‘yicha o‘qish davomiyligi tegishli bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kunduzgi ta‘lim shakli uchun belgilangan o‘qish davomiyligi muddatidan kam bo‘lishi mumkin emasligiga oid taklif Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrda 559-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 17-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2024-yil 14-martda 09-09-11-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif masofaviy ta‘lim shaklining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, unda o‘qitishning minimal davomiyligiga oid aniq qoidaning belgilanishiga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 8 ta (4 ta xorijiy nashrlarda) va to‘plamlar tarkibida 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘qqiz paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan hamda texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, natijalarning aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishiga oid ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ta‘lim olish huquqining nazariy-huquqiy tahlili”** deb nomlanib, unda ta‘lim olish huquqi tushunchasining mazmun-mohiyati va yuridik tabiati, raqamli texnologiyalar va raqamli ta‘lim olish shakllari, raqamli ta‘lim olish huquqining vujudga kelishi va rivojlanish tendensiyalari soha olimlarining fikrlari hamda amaldagi qonunchilik misolida tahlil qilingan.

Bugungi kunda insoniyat hayotida raqamli texnologiyalarning ahamiyati salmoqli hisoblanib, ular inson huquq va erkinlarini ta‘minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Raqamlashtirish jarayonlari ko‘pgina sohalarda bo‘lgani kabi ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamda yoyildi hamda fuqarolarning ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga ijobiy ta‘sir etmoqda. Biroq shuni ham ta‘kidlash lozimki, ta‘lim jarayonlarini raqamlashtirishda ayrim savollarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu holat esa sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Shu sababli ta‘lim olish huquqi tushunchasining konseptual, ilmiy-metodologik jihatlarini hamda uning huquqiy tabiatini, raqamlashtirish sharoitidagi oliy ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish mazkur tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchi tomonidan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va YUNESKOning Ta‘limning xalqaro standartlari tasnifi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, olimlardan I. Kant, O. Kruxmaleva, Sh. Asadov, F. Abdurazzaqova, M. Shermatov, Sh. Saydaliyeva, B. Norbekova, S. Fedorenko, T. Shilyuk, N. Jabin, S. Shermuxamedova, B. Qodirov va boshqa olimlar tomonidan ta‘lim hamda ta‘lim olish tushunchasiga bildirilgan ta‘riflar tahlil qilinib, ilmiy bahs-munozaraga kirishilgan hamda tahlillar natijasida dissertant tomonidan “ta‘lim” va “ta‘lim olish huquqi” tushunchalariga nisbatan quyidagicha mualliflik ta‘riflari taklif etilgan:

“Ta‘lim – shaxsga nazariy va amaliy bilimlarni berishga, uning malaka va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan, bilim olish jarayoni va o‘quv faoliyatining davomiyligi va uzluksizligi bilan tavsiflanadigan hamda ma‘lum bir ketma-ketlikda aniq ifodalangan maqsadlarga erishishning tizimli jarayonidir.”

“Ta‘lim olish huquqi – har bir shaxs teng huquqlilik asosida erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan, shaxsda muayyan bilim, malaka va ko‘nikma shakllantiradigan, davlat tomonidan berilgan kafolatlar asosida shaxsga tegishli bo‘lgan subyektiv huquqdir”.

Mualliflar tomonidan oliy ta‘lim olish huquqining subyektiv huquq sifatida e‘tirof etilishi hamda davlat va xalqaro hamjamiyat tomonidan kafolatlanishiga oid qarashlarini alohida e‘tirof etish joizligi, shuningdek, mualliflar qayd etganidek, oliy ta‘lim olish huquqi shaxsning ushbu huquqdan ixtiyoriy foydalanishi orqali tegishli soha bo‘yicha

bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan huquqni ham ifodalashi to'g'risida xulosaga kelingan.

Dissertant tomonidan S. Martin, H. Brighthouse va K. Mullane kabi olimlar tomonidan bildirilgan oliy ta'lim olish huquqining konstitutsiyaviy subyektiv huquq ekanligiga to'liq qo'shilgan holda oliy ta'lim olish huquqi amaldagi konstitutsiyamizda ham mustahkamlangani hamda u fundamental huquqlardan biri sifatida shaxsga tegishli bo'lgan ta'lim olish huquqining bir qismi sifatida belgilangani e'tirof etilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan ayrim olimlarning oliy ta'lim olish huquqining tabiiy huquq sifatida baholanishi holati bilan to'liq kelishib bo'lmazligi, sababi tabiiy huquq inson tug'ilishi bilan yuzaga kelishi va har qanday holatda ham shaxsga tegishli bo'lishi, biroq oliy ta'lim olish uchun shaxs ma'lum talablarni, jumladan, umumiy o'rta va o'rta maxsus yoki professional ta'limni tamomlagan bo'lishi talab etilishi to'g'risidagi qarash ilgari surilgan.

F.R. Xandaker, A.K. Weilert kabi olimlarning tadqiqotlarini tahlil etish natijasida ta'lim olishga bo'lgan huquqning "Soyabon huquqlar" (umbrella rights) toifasiga kirishi asoslantirilgan.

Olib borilgan tahlillardan kelib chiqib bugun raqamlashgan ta'lim jarayonlari quyidagicha tasniflangan:

Ana'naviy — talabalar oliy ta'lim muassasasiga keladi, professor-o'qituvchilar bilan yuzma-yuz (face to face) aloqaga kirishadi. Ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan, raqamli ta'lim platformalaridan foydalaniladi.

Aralash (Hybrid) — ta'lim jarayonlarining bir qismi an'anaviy tarzda (asosan seminar mashg'ulotlari), bir qismi (ma'ruzalar va imtihonlarni topshirish) esa raqamli texnologiyalar orqali kechadi.

To'liq raqamlashgan — Ta'limning barcha jarayonlari to'liq masofadan raqamli texnologiyalar yordamida kechadi. Virtual universitetlar, xususan, Pokiston virtual universiteti, Harvard biznes maktabi misolida bu jarayonlar tahlil qilingan.

Shuningdek, bugungi raqamli texnologiyalar rivojlangan bir davrda raqamli ta'lim olishning mobil ta'lim, bulutli texnologiya, onlayn kurslar, geymifikatsiya, web-kvest kabi turlari ishda tahlil qilingan.

Qonunchilikdagi mavjud normalar tahlil etilganda "oliy ta'lim olish huquqi" tushunchasining mavjud emasligi, olimlar tomonidan berilgan fikrlarda ushbu tushunchaning munozarali ekanligi hamda ular o'rtasida ushbu tushunchaga nisbatan yagona to'xtamga kelinmagani sababli ushbu tushunchaga nisbatan quyidagi mualliflik ta'rifi berilgan:

"Oliy ta'lim olish huquqi – belgilangan talab bo'yicha tegishli ma'lumotga ega bo'lgan shaxsning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratilgan, jamiyat va davlatning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida davlat tomonidan berilgan ma'lum kafolatlar asosida barcha foydalanishi mumkin bo'lgan shaxsning subyektiv huquqidir."

Tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim olish huquqining yuridik tabiati sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- oliy ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy subyektiv huquq hisoblanadi;
- inson huquqlarining konstitutsiyaviy tasnifi bo'yicha ijtimoiy huquqdir;

– oliy ta’lim olish huquqi muayyan majburiyat bajarilganidan so‘ng, ya’ni majburiy umumiy o‘rta ta’lim tamomlanganidan so‘ng vujudga keladi;

– oliy ta’lim olish ixtiyoriylik asosida, ya’ni oliy ta’lim olish yoki olmaslik, ta’lim olish shakllarini, ta’lim yo‘nalishlari va ta’lim muassasalarini erkin tanlashi asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim olish huquqini amalga oshirishni ta’minlash imkoniyati umumiy belgilangani hamda ularni yanada kengaytish maqsadida ushbu qonunning 5-moddasi ikkinchi qismiga ta’lim olish, shu jumladan, oliy ta’lim olish huquqini amalga oshirishni ta’minlash imkoniyati sifatida quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan:

– ta’limning uzluksiz ekanligini ta’minlash va uni tashkil etish;

– umumiy o‘rta ta’limning majburiyligi;

– ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiyani tashkil etish;

– oliy ta’lim tashkilotlarida qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligini berish.

Tadqiqotchi tomonidan “raqamlashtirish” tushunchasi mazmuni ham turli olimlar qarashlarini tahlil qilgan holda ko‘rib chiqilgan. Bunda ushbu tushunchani talqin qilishga nisbatan ikki xil yondashuv mavjudligi, birinchi yondashuv raqamlashtirishni tor ma’noda talqin qilishi, ushbu qarash tarafdorlaridan T. Feldman, R. Pepperell, D. Robinson, T. Pinch hamda F. Trokkolarning fikriga ko‘ra, raqamlashtirish deganda turli xil ma’lumot va axborotlarni 1 va 0 signallariga aylantirish tushunilishi, ushbu qarash informatikada har qanday axborotning 1 va 0 (“ha” va “yo‘q”) mantiqiy signallari ko‘rinishida ifodalanishiga asoslangani bayon etilgan.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari, shu jumladan, M. Kastels, R. Vachl, J. Van Diyk, S. Verhulst hamda S. Sassen va K. Appyaharning fikricha, raqamlashtirish deganda jamiyatning turli sohalariga raqamli texnologiyalarni, media va kommunikatsiya platformalarini keng joriy etish tushunilishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotchi tomonidan yuqorida keltirilgan birinchi yondashuv asosida “raqamli texnologiyalar” tushunchasiga 1 va 0 signallari asosida ishlovchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sifatida ta’rif berilgan. Shu bilan birga, birinchi yondashuv tarafdorlarining qarashlarini rad qilmagan holda “raqamlashtirish” tushunchasiga keng ma’noda ta’rif berish maqsadga muvofiq bo‘lishi, sababi bugungi kunda “raqamlashtirish” atamasini shunchaki ma’lum bir fayllarga nisbatan emas, balki butun bir sohalarga nisbatan qo‘llash boshlangani va bu bilan mazkur tushuncha o‘zining mohiyatini yuqorida keltirilgan ikkinchi yondashuv foydasiga o‘zgartirgani, shunga ko‘ra, “raqamlashtirish” tushunchasini raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali muayyan ijtimoiy munosabatlarning shaklini o‘zgartirish jarayoni sifatida ta’riflash joizligi to‘g‘risidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, dissertant o‘z tahlillari asosida ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning afzalliklari ta’lim jarayonini individuallashtirish, ya’ni ta’lim jarayonining ta’lim oluvchiga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘lishini, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar tomonidan bilimlarni tartibli va tushunarli shaklda olish imkoniyatini yuzaga keltirishini, raqamli ta’lim texnologiyalari qog‘ozbozlikni minimallashtirishga, pedagoglar faoliyatini va talabalarning bilim olish

jarayonini yanada soddalashtirishga, talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga va oxir-oqibatda oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishini bayon etgan.

Muallif tomonidan dunyoda raqamli ta'lim olish huquqi har bir davlatda o'ziga xos tarzda rivojlangani, ushbu rivojlanish tendensiyalarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish maqsadga muvofiqligi bildirilgan:

- 1) raqamli ta'lim olish huquqining shakllanish davri (1980–1995-yillar);
- 2) raqamli ta'lim olishning sohalararo tarqalish davri (1995–2020-yillar);
- 3) raqamli ta'lim huquqining post-COVID davri (2020-yildan hozirgi vaqtgacha).

Dissertant soha olimlarining fikrlari, yuridik adabiyotlar hamda qonunchilik hujjatlari tahlili asosida bugungi kunda raqamli ta'lim olish huquqining rivojlanishida quyidagi tendensiyalar mavjudligini ta'kidlagan:

– elektron ta'limning kirib kelishi oliy ta'lim tizimida oflayn va onlayn ta'lim bilan birlashib, aralash (gibrid) o'quv jarayoniga o'tmoqda hamda ularning qaysi biri afzalliklarga egaligi ochiq qolmoqda;

– oliy ta'limning raqamli transformatsiyasi ustuvor loyihalarni amalga oshirishga hissa qo'shadigan infratuzilmani, yagona me'yoriy-uslubiy bazani yaratishni talab etmoqda;

– oliy ta'limning raqamli transformatsiya natijasida oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil etish, jumladan, ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, ta'lim metodlarini samarali amalga oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bazasini joriy etishni talab qiladi;

– raqamli ta'limning rivojlanishi sifatli ta'lim kontentlari, o'quv materiallarini shakllantirish bilan bir qatorda o'qituvchining pedagogik va kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishni talab etmoqda;

– ta'limni raqamlashtirish ta'lim olishdagi tengsizliklarni keltirib chiqarishi, ya'ni nisbatan kambag'al aholi qatlamlari orasida tengsizlikka sabab bo'lishi mumkin va uni minimallashtirish zarur;

– ta'limni jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga joriy etishning aniq mexanizmlari, ularni joriy orqali erishiladigan ijobiy natijalar hamda kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning oldini olish choralarini ko'rish va boshqalar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Raqamlashtirish sharoitida ta'lim olish huquqini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda raqamlashtirish sharoitida ta'lim olish huquqiga doir qonunchilik tahlili, masofaviy ta'lim olish huquqini ta'minlashning huquqiy asoslari hamda inklyuziv raqamli ta'lim olish huquqini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy masalalari tahlil etilgan.

So'nggi yillarda ta'lim olish huquqi, shu jumladan, oliy ta'lim olish huquqini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari bazasi yaratib kelingani, oliy ta'lim olish huquqini ta'minlash masalasining huquqiy asoslari xalqaro hujjatlar, qonun va qonunosti hujjatlar (qonunlar, Oliy Majlisi palatalari qarorlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari va qarorlari), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining ichki lokal hujjatlari orqali tartibga solinishi bayon etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va ularga o'zgartirishlar kiritib borilishiga oid ma'lumotlar tarixiylik va tizimlilik usullaridan kelib chiqqan holda tahlil qilingan.

Zero, mazkur bobda mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng respublikamizda 1992-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 1997-yilda esa Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingani, 1997-yilga kelib, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun yanada takomillashtirilgan holda yangi tahrirda qabul qilingani, mazkur hujjatlarda oliy ta'lim huquqi, uni amalga oshirish tartibi va shartlari, ta'lim turlari, bosqichlari va muddati bilan bir qatorda, yangi pedagogik texnologiyalar va axborot vositalarni o'quv jarayoniga joriy etish belgilangan bo'lib, raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim olish huquqini amalga oshirish nazarda tutilmagani kabilar bayon etilgan.

Dissertant ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida bugungi kunda milliy qonunchiligimizda oliy ta'lim olish huquqi inson huquqlari kafolati sifatida konstitutsiyaviy normalardan biri hisoblanishi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida oliy ta'lim va ilm-fan sohalarini ustuvor taraqqiy ettirishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yish shartligini ta'kidlab, ta'lim tizimi va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berganligi, shundan kelib chiqib, oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqlar kafolati sifatida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 51-moddasida oliy ta'lim olish huquqi, ya'ni shaxsning davlat ta'lim muassasalarida tanlov asosida davlat hisobidan (grant asosida) oliy ma'lumot olishga haqli ekanligi mustahkamlab qo'yilganligi, mazkur qoidaning konstitutsiyaviy norma sifatida belgilash orqali iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida doimiy ravishda tanlov asosida davlat ta'lim tashkilotlarida bepul oliy ma'lumot olish huquqi kafolatlanayotgani, bu o'z navbatida, oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqning davlat tomonidan kafolatlanishini ham nazarda tutishini bayon etgan.

Muallif O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekistonning barcha huquqiy tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim huquqini amalga oshirishda universal huquqiy asos hisoblanishini, shunga ko'ra, ta'limni, jumladan, oliy ta'lim olish huquqini amalga oshirish va huquqiy jihatdan tartibga solishda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz eng oliy yuridik kuchga ega hujjat sifatida, ushbu sohadagi munosabatlarga nisbatan to'g'ridan to'g'ri amal qilishini alohida qayd etgan.

Dissertant qonunchilik hujjatlarida masofaviy ta'lim olish huquqining aniq ta'rifi mavjud emasligi hamda soha olimlari tomonidan ushbu tushunchaga nisbatan turli qarashlar ilgari surilganidan kelib chiqib ushbu tushunchaga nisbatan quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari surgan:

"Masofaviy ta'lim olish huquqi – ta'lim oluvchining ta'lim standartlariga muvofiq mustaqil bilim olish tamoyiliga asoslangan, ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va Internet tarmog'idan foydalangan holda masofadan olishiga qaratilgan huquqidir".

Shuningdek, masofaviy ta'lim olish huquqidan foydalanishda ta'lim oluvchi (talabalar)ni boshqarishi, ularga o'quv faoliyatida ko'mak berish maqsadida alohida maqomdagi mutaxassislarni jalb etish zarurati yuzaga kelmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga masofaviy ta'lim jarayonining ishtirokchilari sifatida moderator, fasilitator va tyutorlarni kiritish, ularning huquqiy maqomi, vazifa va funksiyalarini belgilash maqsadga muvofiq.

Har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi, jazoni shu jumladan, ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumlarning ham oliy ta'lim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalda ta'minlash hamda ularni yanada kengaytirish maqsadida mahkumlarga masofaviy oliy ta'lim berish tizimini yo'lga qo'yish taklif etiladi. Bunda ushbu huquqni ta'minlashda quyidagi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq.

a) masofaviy ta'lim shakli orqali oliy ta'lim olish istagida bo'lgan mahkumlarga masofaviy oliy ta'lim olish huquqi beriladi;

b) onlayn shaklda mahkumlarning bilimlari va ko'nikmalarini oshirish maqsadida masofaviy o'qitishni amalga oshiruvchi o'quv kurslari va dasturlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

d) yakuniy imtihondan o'tgan mahkumlarga oliy ma'lumot olganini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi diplom berish taklif etiladi.

“Inklyuziv ta'lim” tushunchasiga nisbatan quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan:

“Inklyuziv ta'lim – ta'lim tizimi barcha ta'lim oluvchilarga: ham sog'lom, ham nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilarga moslashtirilgan, barcha ta'lim oluvchilarning ta'lim olishga bo'lgan o'z huquqlaridan hech qanday to'sqinliklarsiz foydalanishiga asoslangan ta'lim tizimidir”.

O'zbekiston qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunga qadar xalq ta'limi sohasida inklyuzivlikni ta'minlashga qaratilgan o'nlab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, oliy ta'limda inklyuzivlikni ta'minlashga oid munosabatlar yetarlicha reglamentatsiya qilinmasdan qolmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 15-moddasida inklyuziv ta'lim ta'lim olish shakllaridan biri sifatida keltirilgan bo'lib, aslida inklyuziv ta'lim ta'limning alohida shakli emas, balki uning ajralmas xususiyati va asosiy tamoyili sifatida e'tirof etilishi kerak. Shu sababli qonunning 15-moddasidagi ta'lim shakllari ro'yxatidan inklyuziv ta'limni chiqarib tashlash hamda 4-moddada keltirilgan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplardan biri sifatida ta'limning inklyuzivligini ham belgilash maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan.

Raqamli inklyuziv ta'lim ta'limdagi tengsizliklarni tugatish va ijtimoiy inklyuziyani rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etiladigan inklyuziv ta'limda nogironligi bo'lgan talabalar hamda boshqa talabalar o'rtasidagi, ayniqsa, ularning ta'lim olish borasidagi imkoniyatlari o'rtasida farqlarning kamayishiga erishish mumkinligi to'g'risida xulosaga kelingan.

Dissertant raqamli inklyuziv ta'limning tashkil etilishi bilan klassik shakldagi inklyuziv ta'limga bo'lgan huquqlar cheklanmasligi lozimligini, sababi raqamli inklyuziv ta'lim qo'shimcha imkoniyat shaklida taqdim etilmasdan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun majburiy tarzda tashkil etiladigan bo'lsa, bunday ta'lim o'zining inklyuzivlik xususiyatini yo'qotgan hisoblanishini bayon etgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Raqamlashtirish sharoitida ta'lim olish huquqini ta'minlash istiqbollari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda ta'lim olish huquqiga doir xalqaro huquqiy standartlarni joriy etish orqali raqamli ta'lim olish huquqini ta'minlash masalalari, ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqini ta'minlashga doir ijobiy tajribalarni joriy etish istiqbollari, sun'iy intellektni ta'lim olish jarayoniga tatbiq etishning huquqiy jihatlari kabi masalalar tahlil qilingan.

Mazkur bobda ta'lim olish huquqi bir qator xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlar, jumladan, xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, paktlar, nizomlar, umumiy izohlar, tavsiyalar, deklaratsiyalar va harakatlar uchun asoslar kabi hujjatlardan o'rin olgani bayon etilib, 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingandan so'ng ta'lim olish huquqi xalqaro va mintaqaviy darajadagi ko'plab shartnomalarda yana bir bor tasdiqlangani ilgari surilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi YUNESKOning Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi konvensiyasi (1960), Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro pakt (1965), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979), Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989), Barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1990) hamda Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2006) asosida ta'lim olish huquqining belgilanganini ilgari surgan hamda mazkur xalqaro standartlardagi ta'lim olish huquqiga oid asosiy normalar mazmunini tahlil qilgan.

Dissertant tahlillar natijasiga ko'ra, raqamli ta'lim olish huquqi “har kimning qobiliyatiga asosan hamda yetarli imkoniyat doirasida” ta'minlanmog'i, ya'ni barcha shaxslar (shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, olis hududlarda yashovchi shaxslar, ta'limni mehnat bilan bir vaqtda amalga oshirayotgan shaxslar hamda oilaviy yoki boshqa shaxsiy sabablarga ko'ra an'anaviy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan ayollar) uchun erishish mumkin bo'lgan darajada bo'lishi kerak degan xulosaga kelgan va mazkur fikrga kelishda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasi 1-qismi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13–14-moddalariga asoslanganini bayon etgan.

Dissertantning bayon etishicha, ta'lim olish huquqini e'tirof etuvchi asosiy xalqaro standartlar raqamli ta'lim paydo bo'lishidan ancha oldin qabul qilingan bo'lsa-da, ularda ta'limning barcha uchun birdek ochiq bo'lishini, ya'ni barcha uchun ta'limga erishishda teng imkoniyatlar yaratish lozimligini e'tirof etuvchi normalar belgilangani ta'lim olishda alohida ehtiyojlarga muhtoj bo'lgan yuqorida sanab o'tilgan shaxslar uchun raqamli ta'lim olish huquqini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Muallifning ta'kidlashicha, raqamli ta'lim olish huquqining ta'minlanishi Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, xususan, 4-maqsad (Barcha shaxslar uchun inklyuziv ta'limni joriy etish), 5-maqsad (Gender tenglik), 9-maqsad (Sanoat, innovatsiya va infrastruktura), 10-maqsad (Notenglikni kamaytirish), 16-maqsad (Tinchlik, adolat va kuchli institutlar) hamda 17-maqsad (Maqsadlar yo'lida hamkorlik)ni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro standartlar ta'limning barcha uchun teng bo'lishi asosida raqamli ta'limga bo'lgan huquqni e'tirof etgani holda uning yo'lga qo'yilishidan oldin bir qator shart-sharoitlar (raqamli texnologiyalardan foydalanish savodxonligi, sifatli raqamli texnologiyalar va uzluksiz aloqa) yaratilishi lozimligini, aks holda, bu boshqa bir jiddiy muammoga – sifatli ta'lim olishga bo'lgan huquqlar buzilishiga sabab bo'lishini belgilaydi.

Tadqiqotga ko'ra, xorijiy mamlakatlarning ta'lim olish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari tahlil etilganda, aksariyat xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlab qo'yilgani aniqlandi. Jumladan, qator davlatlarda (Finlandiya, Norvegiya, Shveysariya, Italiya, Portugaliya) ta'lim olishning bir qismi sifatida oliy ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy norma sifatida belgilangan. Xususan, Finlandiyada ta'lim olish, shu jumladan, oliy ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy norma sifatida Konstitutsiyaning 16-bo'limida belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, har bir inson bepul umumiy ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, ta'lim olish majburiyatlari to'g'risidagi qoidalar qonun bilan belgilanadi. Shuningdek, Finlandiya Konstitutsiyasi 16-bo'limining uchinchi qismida oliy ta'lim olish huquqi belgilangan bo'lib, fan, san'at va oliy ta'lim erkinligi kafolatlangan.

Norvegiya Konstitutsiyasida ham ta'lim olish huquqi belgilangan bo'lib, Konstitutsiyaning 109-moddasida har bir insonning bilim olish huquqiga ega ekanligi hamda davlat hokimiyati organlari o'rta ta'lim olish, shuningdek, tegishli malaka asosida oliy ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlashi nazarda tutilgan.

